# MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI



# KORRUPSIYA
## KORONAVIRUS KABI YUQADIGAN KASALLIK



**01**

**Korrupsiyaga bog'liq barcha aloqalarni uzish kerak**
Pora taklif qilmang yoki bermang va pora olish va berishda vositachilik qilmang – Bu jinoyat
Korrupsiya xavfli haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish orqali o'z immunitetingizni yarating

**02**

**Korrupsiyaning zararlari:**

- Davlat mablag'lari va resurslarining samarasiz taqsimlanishi va sarflanishi
- Soliq tushumlarining kamayishi, tadbirkorlik faoliyati, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaga investitsiyalar kiritishining qisqarishi
- Malakali kadrlarning mamlakatni tark etishi
- Davlat organlari faoliyati samaradorligining pasayishi va unga aholi ishonchining yo'qolishi
- Bartaraf qilish lozim bo'lgan byurokratik to'siqlar sababli mablag' va vaqt yo'qotish
- Ijtimoiy tengsizlikning ortishi
- Uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi

# UMRNI PANJARA ORTIDA AFSUS CHEKISH BILAN O‘TKAZISHGA SARFLAMA

| Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste'mol qilish | Pora berish | Pora olish | Pora berish | Pora olish |
|---|---|---|---|---|
| Bazaviy hisoblash miqdorining **150** baravaridan **300** baravarigacha miqdorda jarima yoki **5 yilgacha** muayyan huquqdan mahrum qilish yoki **360 soatgacha** majburiy jamoat ishlari yoxud **3 yilgacha** axloq tuzatish ishlari **yoki 1 yildan 2 yilgacha** ozodlikni cheklash yoki **3 yilgacha** ozodlikdan mahrum qilish bilan | BHMning **50** baravaridan **100** baravarigacha miqdorda jarima yoki **2 yildan 5 yilgacha** ozodlikni cheklash yoxud **5 yilgacha** ozodlikdan mahrum qilish bilan | BHMning **50** baravaridan **100** baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda **2 yildan 5 yilgacha** ozodlikni cheklash yoxud **5 yilgacha** ozodlikdan mahrum qilish bilan | Bazaviy hisoblash miqdorining **50** baravaridan **100** baravarigacha miqdorda jarima yoki **300** soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki **1 yildan 2 yilgacha** ozodlikni cheklash yoki **3 yilgacha** ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi | BHMning **50** baravaridan **100** baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda **2 yildan 5 yilgacha** ozodlikni cheklash yoxud **5 yilgacha** ozodlikdan mahrum qilish bilan |

# KORRUPSIYA JINOYATLARI AKS ETGAN FOTO LAVHALAR















# AGAR PORA TAKLIF QILINSA, DARHOL HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARIGA MUROJAAT QILING, BU SIZGA VA ATROFINGIZDAGILARGA YORDAM BERADI

**Shaxsga nisbatan pora so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqida 30 sutka mobaynida o‘z ehtiyoji bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi**




**O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 1007 ishonch telefoni orqali, shuningdek ichki ishlar organlariga yozma yoki og‘zaki ravishda 102, shuningdek vazirlik va idoralarning ishonch telefonlari orqali murojaat qiling**

**KORRUPSIYA BILAN BOG‘LIQ HAR QANDAY ALOQA VA KORRUPSIYANING YENGIL SHAKLI HAM SIZGA VA DAVLAT TIZIMIGA ZARAR KELTIRADI**

# KORRUPSIYANI TO'XTATISH MUMKIN



## Pora olish

Mansabdor shaxs tomonidan pora beruvchining foydasiga muayyan harakatlarni bajarishi yoki bajarmasligi uchun moddiy qiymatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi.
O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi (O'zR JK) 210-modda:
**15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish** yoki **BHMning 100 baravarigacha miqdorda jarimaga** tortilishiga sabab bo'ladi.

## Pora berish

Mansabdor shaxsga shaxsan yoki vositachi orqali pora berish.
O'zR JK 211-modda:
**15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki BHMning 100 baravarigacha miqdorda jarimaga** tortilishiga sabab bo'ladi.

## Pora olish-berishda vositachilik qilish

Pora olish yoki berishda vositachilik qilish.
O'zR JK 212-modda:
**15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki BHMning 100 baravarigacha miqdorda jarimaga** tortilishiga sabab bo'ladi.

## Agar pora bermasa

**Korrupsiya quyidagi shaklda bo'ladi:**
Yetkazib berish paytida pora beruvchi darhol yoki kelajakda bajarilishi kerak bo'lgan harakatlarni aniq kelishib oladi. Noaniq ko'rinishda pora beruvchi va pora oluvchi o'zlarining birgalikdagi jinoyat faoliyatini qonuniy xatti-harakatlar sifatida yashiradilar. Bunda pora beruvchi bevosita talab qilmasligi mumkin. **Manfaatlar to'qnashuvi:** Mansabni egallagan shaxsning shaxsiy manfaatlari (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) uning xizmat vazifalarini to'g'ri, obyektiv va xolis bajarishiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyat.

## Pora

foyda yoki moddiy qiymat bo'lib, mansabdor shaxs tomonidan pora beruvchining manfaatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida olinadi.

## Jinoyat javobgarligi 16 yoshdan boshlanadi

O'zbekiston Respublikasida jinoyat kodeksiga ko'ra, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik **16 yoshdan** boshlanadi. Bu yoshda shaxslar qonuniy oqibatlarni to'la anglashlari kerak deb hisoblanadi.

# PORA SO‘RASHSA NIMA QILISH KERAK?

ESLATMA

**1**

Juda ehtiyotkor va xushmuomala bo‘ling, pora berishga tayyorgarlik yoki rad etish deb talqin qilinishi mumkin bo‘lgan shoshilinch bayonotlar qilmang

**2**

Suhbatda tashabbusni o‘z qo‘lingizni olmang, potensial poraxo‘rning gapirishiga imkon berib, sizga iloji boricha ko‘proq ma'lumot berishiga yo‘l qo‘yib bering

**3**

Diqqat bilan tinglang va talab qilinayotgan pora (pul yoki boshqalar) sizga ishingizni hal qilib berish uchun ekanligiga ishonch hosil qiling. Shuningdek, poraning miqdori va berish usullari haqida aniqlik kiriting

**4**

Pora beruvchi bilan suhbatingizni video yoki audio shaklida yozib olishga harakat qiling

**5**

Pora berish vaqti va joyini tanlashni keyingi suhbatga qoldirishga harakat qiling

**6**

Pora bergan taqdirda muammoni hal qilish kafolatlari haqida so‘rang

**7**

Yashah joyingizdagi huquqni muhofaza qilish organlaridan biriga sodir bo‘ladigan jinoyat haqida og‘zaki yoki yozma xabar bilan murojaat qiling

**8**

Huquq-tartibot idoralari xodimlari bilan suhbatda sizga jinoyatchini fosh etish uchun nima qilish kerakligi haqida ko‘rsatma beriladi

Korrupsiya jinoyati bilan bog‘liq ma'lumot bo‘lsa, Bosh prokuraturaning **1007** ishonch telefoniga qiling

# "MANFAATLAR TO‘QNASHUVI TO‘G‘RISIDA"GI QONUNI

Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik haqida ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq bayonnoma tuzadi va uni ko'rib chiqish uchun sudga yuboradi

Maxsus bo'linmalar xodimlarining tizimli ravishda malakasini oshirishni, ularda tegishli ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitishni tashkil etadi.

Manfaatlar to'qnashuvi natijasida fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning manfaatlariga yetkazilgan zararning o'rni to'liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi

Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reyestri, mavjud. manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma hamda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakllarini tasdiqlaydi




Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar uchun manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha. uslubiy tavsiyalarni e'lon qiladi

Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq axborot va materiallarni davlat organlaridan yoki boshqa tashkilotlardan so'rab oladi va o'rganadi

Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning manfaatlar to'qnashuviga oid munosabatlarni tartibga solish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi

Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish, jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida tartibga solish sohasidagi faoliyatini o'rganadi

Manfaatlar to'qnashuviga oid holatlar aniqlanganda bitimni bekor qilish, qarorni hamda boshqa hujjatni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida davlat organlariga yoki boshqa tashkilotlarga taqdimnoma kiritadi yoxud ularni haqiqiy emas deb topish haqida sudga da'vo kiritadi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

**AGAR SIZ MANFAATLAR TO‘QNASHUVIGA, KORRUPSIONER RAHBAR YOKI XODIM TAZYIQI OSTIGA TUSHGAN BO‘LSANGIZ, MASLAHAT SO‘RASH YOKI TEGISHLI CHORALAR KO‘RILISHI UCHUN DARHOL MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH “KOMPLAYENS-NAZORAT” TIZIMINI BOSHQARISH BO‘LIMI XODIMLARIGA ALOQAGA CHIQING:**



*3-modda. Asosiy tushunchalar*

*13-modda. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish*

*15-modda. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomani taqdim etish tartibi*

*(Manba: www.lex.uz)*

3-13-15-modda

(97) 648-78-18; (90) 265-80-20; (72) 226-62-90 @uzmujf_antikor_bot antikor@jbnuu.uz